

QIYOSIY-TARIXIY TILSHUNOSLIK VA UNING SHAKLLANISHI

*Andijon davlat chet tillari instituti
Ingliz tili filologiyasi, o'qitish metodikasi va
tarjimashunoslik faoliyati fakulteti
sharq tillari (xitoy tili) yo'nalishi
102-guruh talabasi*

Ulug'bekova Munira O'tkirbek qizi

Ilmiy maslahatchi: Zaynobidinova I.M.

Annotatsiya: Mazkur maqolada qiyosiy-tarixiy tilshunoslik fanining paydo bo'lishi, shakllanish jarayoni va rivojlanish bosqichlari keng qamrovda yoritiladi. Tillarning tarixiy taraqqiyotini o'rganishda qiyosiy metodning ahamiyati ochib berilib, qardosh tillarni o'zaro solishtirish orqali ibtidoiy til birliklarini qayta tiklash masalalari tahlil qilinadi. Sanskrit tilining o'rganilishi, romantizm oqimining ta'siri, tarixiy yondashuvning vujudga kelishi kabi omillar fanning shakllanishida hal qiluvchi rol o'ynagani ilmiy asosda ko'rsatib beriladi. Shuningdek, Frants Bopp, Rasmus Rask, Yakov Grimm, Aleksandr Vostokov hamda Vilgelm fon Gumboldtning ilmiy faoliyati va ularning tilshunoslik rivojiga qo'shgan ulkan hissassi atroflicha yoritilgan.

Kalit so'zlar: qiyosiy-tarixiy tilshunoslik, tarixiy metod, qardosh tillar, sanskrit tili, romantizm, Grimm qonuni, til tipologiyasi, agglyutinatsiya, fleksiya, til va tafakkur, Gumboldt nazariyasi.

Аннотация: В статье всесторонне рассматриваются возникновение, процесс становления и этапы развития сравнительно-исторического языкознания как науки. Раскрывается значение сравнительного метода в изучении исторического развития языков, анализируются вопросы восстановления первобытных языковых единиц путем сопоставления родственных языков. Научно доказано, что такие факторы, как изучение санскрита, влияние романтизма и становление исторического подхода, сыграли решающую роль в становлении этой науки. Также подробно освещается научная деятельность Франца Боппа, Расмуса Раска, Якоба Гримма, Александра Востокова и Вильгельма фон Гумбольдта и их большой вклад в развитие языкознания.

Ключевые слова: сравнительно-историческое языкознание, исторический метод, родственные языки, санскрит, романтизм, закон Гримма, типология языков, агглютинация, словоизм, язык и мышление, теория Гумбольдта.

Abstract: This article comprehensively covers the emergence, formation process and stages of development of the science of comparative-historical linguistics. The importance of the comparative method in the study of the historical development of

languages is revealed, and the issues of restoring primitive language units by comparing related languages are analyzed. It is scientifically demonstrated that factors such as the study of Sanskrit, the influence of the Romantic movement, and the emergence of a historical approach played a decisive role in the formation of the science. The scientific activities of Franz Bopp, Rasmus Rask, Jacob Grimm, Alexander Vostokov, and Wilhelm von Humboldt and their great contribution to the development of linguistics are also covered in detail.

Keywords: comparative-historical linguistics, historical method, sister languages, Sanskrit, romanticism, Grimm's law, language typology, agglutination, inflection, language and thought, Humboldt's theory.

Kirish

Qiyosiy-tarixiy tilshunoslik tilshunoslikning muhim va fundamental sohalaridan biri bo'lib, u tillarning kelib chiqishi, o'zaro qarindoshligi va tarixiy rivojlanish qonuniyatlarini qiyoslash asosida o'rganadi. Bu soha qardosh tillardagi fonetik, leksik va grammatik birliklarni tizimli solishtirgan holda, o'tmishda mavjud bo'lgan umumiy til birliklarini qayta tiklashga xizmat qiladi.

XIX asrga qadar tilshunoslik asosan tavsifiy xarakterga ega bo'lgan bo'lsa, qiyosiy-tarixiy metod paydo bo'lgach, tilni tarixiy jarayon sifatida izohlash imkoniyati yaratildi. Shu tariqa tilshunoslik mustaqil ilmiy fan darajasiga ko'tarildi.

Qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning shakllanishiga ta'sir etgan omillar

1. Tarixiy tafakkurning shakllanishi

XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida ilm-fan sohalarida tarixiylik tamoyili kuchaydi. Til endilikda o'zgarmas hodisa emas, balki doimo rivojlanib boradigan tizim sifatida qarala boshlandi. Tarixiy yondashuv til faktlarini ham vaqt o'qi bo'ylab tushuntirish zaruratini tug'dirdi. falsafa, sotsiologiya va huquqshunoslik fanlarida yuzaga kelgan tarixiy rivojlanish g'oyasi tilshunoslikka ham singib bordi.

Bu metodologik burilish natijasida tilning taraqqiyoti qonuniyatlarini tadqiq qilish ilmiy ehtiyojga aylandi.

2. Romantizm oqimining ta'siri

Romantizm XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida Yevropada keng tarqalgan adabiy-falsafiy oqim bo'lib, u xalq madaniyati, tarix va tilga bo'lgan qiziqishni oshirdi. Ayniqsa, Germaniyada shakllangan nemis romantizmi qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning nazariy poydevorini yaratdi.

1800-yilda tashkil topgan "Iena romantiklar guruhi" va uning yetakchisi Fridrix Shlegel sanskrit, grek va lotin tillari o'rtasidagi genetik aloqalarni ko'rsatib berdi. U tillarni flektiv va affiksallik turlarga ajratib, keyinchalik shakllangan tipologik tasnif uchun asos yaratdi.

3. Sanskrit tilining o'rganilishi

Sanskrit tilining Yevropaga tanitilishi qiyosiy-tarixiy tilshunoslik tarixidagi eng muhim voqea hisoblanadi. XVI asrda Filippo Sosetti hind tili bilan tanishib, uning italyan va lotin tillariga o'xshashligini qayd etgan.

1740-yilda Pateri Pons sanskrit grammatikasi haqida ijobiy fikrlar bildirdi. Ammo sanskritning grek va lotin tillari bilan qarindosh ekanligini ilmiy asosda isbotlab bergan olim Vilyam Djonz bo'ldi.

Shundan so'ng, yevropalik olimlar orasida sanskrit tiliga qiziqish kuchaydi va hind-yevropa tillari nazariyasi shakllana boshladi.

Qiyosiy-tarixiy metod asoschilari

Mahmud Qoshg'ariy

Mahmud Qoshg'ariy turkiy tillarni taqqoslash orqali ularning umumiy ildizlarini aniqlagan. U qiyosiy metodni amalda qo'llagan ilk olimlardan sanaladi.

Frants Bopp

Frants Bopp (1791–1867) qiyosiy-tarixiy grammatikaning otasi sifatida taniladi. U sanskrit, grek, lotin, german va fors tillarini solishtirib, grammatik shakllarning tarixiy ildizini aniqlashga xizmat qiluvchi ilmiy mezonlarni ishlab chiqdi.

Rasmus Rask

Rasmus Rask Skandinaviya tillarining kelib chiqishi ustida tadqiqot olib borib, fonetik qiyoslar orqali ularning hind-yevropa tillariga mansubligini asoslab berdi.

Yakov Grimm

Yakov Grimm german tillari fonetikasi bo'yicha mashhur "Grimm qonuni"ni ishlab chiqdi. Bu qonun tovush o'zgarishlarining tarixiy qonuniyatlarga bo'ysunishini ilmiy isbotlab berdi.

Aleksandr Xristoforovich Vostokov

Vostokov slavyan tillari tarixini tadqiq etgan va rus tilshunosligining asoschilaridan biri sifatida tarixga kirgan.

Vilgelm fon Gumboldt – umumiy tilshunoslik asoschisi

Vilgelm fon Gumboldt tilshunoslik tarixida alohida o'rin egallaydi. U tilni "xalq ruhi ifodasi" deya talqin qilib, til va tafakkur o'rtasidagi o'zviy aloqani yoritdi. Gumboldt til va nutqni farqlab, tilni doimiy harakatdagi jarayon, nutqni esa uning voqelikdagi ifodasi sifatida tushuntirdi.

U "tilning ichki shakli" tushunchasini kiritib, so'zning tashqi shakli bilan ma'nosi orasidagi bog'liqlikni falsafiy jihatdan izohladi.

Tillarni u ajratuvchi, flektiv va agglyutinativ guruhlariga ajratib, tipologik tasnif asoslarini yaratdi.

Xulosa

Qiyosiy-tarixiy tilshunoslik tilshunoslik tarixidagi eng muhim metodologik burilishlardan biridir. Bu fan tilni tarixiy hodisa sifatida o'rganish imkonini berdi. Frants Bopp, Rasmus Rask, Yakov Grimm va Aleksandr Vostokov ushbu yo'nalishga ilmiy asos solgan bo'lsalar, Vilgelm fon Gumboldt umumiy tilshunoslikning nazariy poydevorini yaratdi.

Bugungi kunda ham qiyosiy-tarixiy metod lingvistika fanida yetakchi ahamiyatga ega bo'lib qolmoqda.

